

VIRUSLI GEPATIT A KASALLIGI XUSUSIYATLARI VA BOLALARDA KECHISH HOLATINING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Xojiqulova Dilnoza Nurali qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Axrorova Shaxzoda Robit qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Virusli gepatit qanday kasallik ekanligi, kelib chiqish sabablari, Virusli gepatit A tufayli yuzaga keladigan o'zgarishlar haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan Virusli gepatit A kasalligining bolalarda kechishi, profilaktikasi va diagnostikasi, gepatitni erta aniqlash va davolash bo'yicha muhim omillar talqin etildi.

Kalit so'zlar: Gepatit A, intoksikatsiya, asimptomatik, yuqumlilik, shaxsiy gigiyena, bolalar salomatligi

Bugungi kunda yuqumli kasalliklar, ayniqsa virusli gepatit kasalligi bilan bog'liq holatlar yurtimiz bo'ylab uchrab turibdi. Mamlakat farovonligi, uning kelajagi ko'p jihatlar aholining, jumladan o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lomligiga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda yutimida bolalar yuqumli kasalliklarini kamaytirish va uning samarali profilaktikasini ishlab chiqish, erta diagnostika qilish muhim vazifalardan biri sanaladi. Hozirda O'zbekiston hududida bolalar orasida ko'p uchrayotgan infeksiyalardan biri - bu gepatit virusining turli shakllari hisoblanadi. Virusli gepatit - o'tkir yuqumli kasallik; jigar hujayralarining zararlanishi, umumiy intoksikatsiya belgilari, teri va shilliq qavatlarning sarg'ayishi, peshobning to'q sariq yoki "pivo" ga o'xshash, najasning oqimtir tusga kirishi, jigar, ba'zan taloqning kattalashishi bilan ifodalanadi. Virusli gepatit deganda bir-biriga o'xshash olti xil gepatit tushuniladi, bular A, B, C, D, E, G viruslari qo'zg'atadigan kasalliklardir. Ular yuqishiga qarab og'iz orqali (A, E) va parentral yo'l bilan yuqadigan (B, C, D, E) xillarga ajratiladi. A va E virusli gepatitlarda viruslar bemorning axlati orqali tashqariga chiqadi. Shuning uchun axlat, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, bemor foydalangan buyumlardan ifloslanish juda xavfli hisoblanadi. Parentral yo'l bilan yuqadigan Virusli gepatitlar shprints, igna va boshqa tibbiy asboblarni yetarlicha zararsizlantirilmaganligi oqibatida, shuningdek qon va qon preparatlari quyish hamda turli tibbiy muolajalalar (ginekologik va stomatologik) vaqtida yuqishi mumkin. Virusli gepatitlar davriy kechishi bilan xarakterlanadi. Uning yashirin, boshlang'ich, avj olgan, orqaga qaytish va sog'ayish davrlari ajratiladi. Gepatitning A turi bilan ko'pincha bolalar zararlanadi va uning kechishi ham bolalarda o'ziga xos kechadi. Virusli gepatit A kasalligi - bu o'tkir yuqumli jigar kasalligi bo'lib, qo'zg'atuvchisi gepatit A kasalligi virusi hisoblanadi. Har yili o'n millionga yaqin odam ushbu kasallikka chalinadi. Ushbu virus bilan zararlanish aksariyat hollarda asimptomatik bo'ladi. Boshqa hollarda isitma, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, sariqlik va qorindagiog'riq bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Virusli gepatitning shakllari va ko'proq bolalarda uchraydigan virusli gepatit A kasalligining sababi, kechishi, profilaktikasi va diagnostikasini tadqiq etishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish.

Tadqiqot obyektlari va usullari: Respublikamizning Qashqadaryo viloyati Nishon tumaniga qarashli Talimarjon shahar shifoxonasi yuqumli kasalliklar bo'limi hamda Talimarjon shahridagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining hamda Talimarjon shahar MTT ga qarashli 16-sonli bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining epidemiologik holati tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda gepatit bilan zararlangan bemorlar orasida anketa so'rovnomasi, so'rab-surishtirish va kuzatish metodlaridan, hamda maktab va bog'cha hamshirasi tomonidan taqdim etilgan

o'quvchilarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanish holati bo'yicha berilgan ma'lumotlardan samarali foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot obyektlaridan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, gepatit A virusi kasalligi Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar boshqalarga nisbatan ko'proq kasallanadi. Inkubatsion davri, ya'ni virusning organizmga tushishi va kasallikning ilk belgilari paydo bo'lishi 15 kundan 50 kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Kasallikning yuqish yo'li alimantar yo'l bilan –virus bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotlari, suv, o'yinchoqlar va iflos qo'l orqali yuqadi. Virus tashqi muhitga chidamli 60°C haroratgacha bo'lgan chuchuk va sho'r suvda bir necha oylab saqlanishi mumkin. Gepatit A kasalligi jigar to'qimalarini yallig'lanish va nekrozli o'zgarishlar va intoksikatsiya (zaharlanish) sindromlarini paydo bo'lishi, jigar va taloqni kattalashishi, jigar faoliyatining klinik va laborator buzilishlari, sariqlik belgilarining paydo bo'lishi, siydik rangini to'q rangga kirishi va axlatni rangsizlanishi bilan xarakterlanadi. Kasallik klinikasida quyidagi simptomlar namoyon bo'ladi: holsizlik va darmonsizlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynish va qayt qilish, mushaklarda og'riq. Yashash va ish joylarining sanitariya jihatdan qoniqsiz holatda bo'lishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, aholining zichligi, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash qoidalarini buzilishi, sifatsiz ichimlik suvidan foydalanish viruslarning ko'payishiga sharoit yaratadi.

Xulosa: Virusli gepatit A ning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga bekorlik bilan amal qilish, kasallikni o'z vaqtida aniqlab, bemorni kasalxonaga yotqizish va u bilan yaqin bo'lganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda tutgan idish-tovoq va buyumlarini dezinfeksiya qilish kasallik yanada avj olinishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kasallikning profilaktikasida vaksinatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududida O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati bosh boshqarmasi, 25.07.2017-yildagi 0239-07/3- son qaroriga muvofiq rejali emlash olib boriladi. 1991-yildan boshlab qator yuqumli kasalliklar, jumladan virusli gepatit A kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi 4,5 barobarga kamaytirilishiga erishildi. Bundan tashqari virusli gepatitlar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2018-2021-yillarda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Gepatit A ga qarshi vaksinatsiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarga, 2-marotaba esa 1 oyligida teri ostiga yuboriladi. Revaksinatsiya bola 6 oyligida o'tkaziladi. Emlash natijasida 95 foiz bolalarda kasallikka qarshi immunitet paydo bo'ladi. Bu esa kasallikni sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'ladi. Profilaktika maqsadida bolalarga gammaglobulin (normal immunoglobulin) dan ukol qilish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davolash asosan bemorning umumiy ahvoli vakasallikning klinik belgilariga qarab olib boriladi; yengilroq xilida deyarli dori-darmonlar berilmaydi, kun tartibi va parhezga (davolovchi parhez) rioya qilish tavsiya etiladi. Kasallikning boshqa shakllarida ham parhez hamda kun tartibiga rioya qilishdan tashqari glukoza, vitaminlar, tuzli eritmalar, qon hamda plazma o'rnini bosuvchi suyuqliklar, zarur hollarda gormonlar, antibiotiklar buyuriladi. Bemorga vitaminlar, uglevodlar, oqsilga boy mahsulotlar, shuningdek turli meva va sharbatlar beriladi. Virusli gepatit A kasalligidan bolalarni himoya qilishda maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida sanitariya-gigiyenik talablarga amal qilish muhim o'rin tutadi. Maktab va bog'chalarda kasallikning avj olishi ehtimoli uy sharoitidagidan ancha ko'p bo'lganligi sababli virus bilan zararlantirish gumoni bo'lgan bolalarni iloji boricha ertaroq alohidalash va darslarda boshqa tengdoshlariga ushbu virusni tarqalishiga sabab bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Gepatit A kasalligidan himoyalantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Sog'lom turmush tarziga rioya qilish
- Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ovqat tayyorlash va ovqatlanishdan oldin, jamoat joylari va hojatxonaga borgandan so'ng qo'lni yaxshilab sovunda yuvish
- Yashash joy gigiyenasiga rioya qilish; xonalarni shamollatish va namli tozalov ishlarini olib boorish

- Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash saqlash jarayonlarida sanitar-epidemiologik qoidalarga rioya qilish
- Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldinoqar suvda yaxshilab yuvish,so'ngra qaynagan suvda yuvish
- Pashshalarga qarshi-ichak infeksiyalarini tashuvchilarga qarshi kurashish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.M.Mirtazayev "Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma" Toshkent-2009,160-164-betlar
2. Y.M.Fayziyev, X.A.Fayziyeva "Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya" Toshkent-"ILM ZIYO"-2007, 136-141-betlar.
3. I.I.Yelkin.Umumiy va xususiy epidemiologiya.M., "Meditsina",1989.
4. SH.SH.Shovaxobov. yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari.T.,Ibn Sino nomidagi nashriyot,1997
5. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi tomonidan yoritilib boriladigan ma'lumotlar.